



PAPER

VEB-KVEST TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Qodirov Adhamjon Sharifjon o'g'li ¹

¹Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti

* adhamjonqodirov93@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida kredit-modul asosida mustaqil ta'limni samarali tashkil etishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Ayniqsa, veb-kvest texnologiyasining talaba mustaqilligini oshirishdagi o'rni, uning interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim vositasi sifatidagi afzalliklari tahlil etilgan. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida veb-kvest topshiriqlarini qo'llash orqali talabalarning axborotni izlash, jamoa bilan ishlash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanishi ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda sifatli tahlil metodlari orqali veb-kvest asosida tashkil etilgan mustaqil ta'limning samaradorligi va motivatsion ta'siri isbotlangan. Maqola oliy ta'lim muassasalari pedagoglari, metodistlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan shug'ullanuvchilar uchun foydalidir.

Key words: veb-kvest, mustaqil ta'lim, kredit-modul tizimi, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, tanqidiy fikrlash, masofaviy o'qitish.

Kirish

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda ta'lim tizimi jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Ayniqsa hozirgi internet asrida axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida bilim olishning shakllari, vositalari va mazmuni tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda raqamli transformatsiya, ochiq ta'lim resurslaridan foydalanish, masofaviy va mustaqil o'qitishning yangi metodlari talaba shaxsini rivojlantirish va komil insonni shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda.

Shu bois, talabalarining o'quv faoliyatini samarali tashkil etish, ularni passiv bilim oluvchidan faol bilim egasiga aylantirish hozirgi ta'limning eng muhim ustuvor vazifasiga aylandi. Bu jarayon talabaning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, qarorlar qabul qilish, tanqidiy va reflektiv fikrlash kabi universal kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda Oliy ta'limda joriy etilgan kredit-modul tizimi aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda o'quv yuklamasining yarmidan ko'prog'i — ya'ni kamida

Compiled on: October 3, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

50 foizi mustaqil ta'limga ajratilgan bo'lib, nafaqat talabani mustaqil o'quv faoliyatiga jalb etish, balki unga shaxsiy ta'lim trayektoriyasini tanlash imkonini yaratish ko'zda tutiladi. Mazkur sharoitda faqatgina an'anaviy mustaqil ish shakllari — referat, konspekt, test ishlash va h.k. — yetarli bo'lmay qolmoqda. Bunda oliy ta'lim professor o'qituvchilari zamon bilan hamnafas holda chet el oliy ta'lim muassasalarining tajribalari va amaliyotga joriy etgan yangiliklarini o'zlari ishlayotgan o'quv dargorlarida tadbiiq etishlari talab etilmoqda. Shu sababli, mustaqil ta'limni tashkil etishda innovatsion va interaktiv yondashuvlar, xususan, veb-kvest texnologiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism

Veb-kvest texnologiyasi — bu Internet asosida tashkil etiladigan o'quv topshiriqlari majmuasidir. Bu uslubda talaba Internet resurslari orqali mustaqil axborot izlaydi, uni tahlil qiladi, jamoadagi boshqa a'zolar bilan fikr almashadi, rollarga bo'linib ishlaydi va yakuniy ijodiy mahsulot (prezentatsiya, loyiha, maqola, interaktiv xarita va h.k.) yaratadi. Bunday yondashuv, bir tomondan, o'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini, tanqidiy va analitik tafakkurni, jamoaviy ish va mas'uliyatni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, ularni real hayotga tayyorlaydi. Veb-kvestlar shuningdek, talabani shaxsiy qiziqishlariga mos holatda ishlashiga, individual tempda bilim olishiga va o'z-o'zini nazorat qilishiga imkon beradi. Aynan shu xususiyatlari tufayli veb-kvest texnologiyasi oliy ta'limning kredit-modul tizimi sharoitida mustaqil ta'limni tashkil etishda eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu o'rinda web questni qanday tashkil etish va uni talabalari mustaqil ta'limni tashkil etishdagi o'rni haqida to'xtalsak. Bu zamonaviy texnologiyadan oqilona va to'g'ri uslubda foydalanish juma muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, bu zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lib, u talabalarining mustaqil izlanish, axborot topish, tahlil qilish va natija chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun dastlab mavzuni talabarga tanishtiriladi, nima sababdan bu mavzu muhim ekanligini tushuntiriladi va qiziqtiruvchi motivatsion e'lementlar qo'shiladi. Misol sifatida,

real hayotiy vaziyatlardan misol keltirish yoki video, savollar berish orqali ularni darsni ichiga olib kirish lozim.

Tadqiqotda sifatli tahlil metodi tanlandi. Asosiy ma'lumotlar Хлупина Н.О. tomonidan olib borilgan amaliy tajribalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga mos ravishda Esanov M. tomonidan ishlab chiqilgan kredit-modul tizimining metodik qo'llanmasi asosida veb-kvest texnologiyasining samaradorligi baholandi. Eksperimental faoliyatda talabalar veb-kvest shaklida tashkil etilgan topshiriqlarni 3 hafta davomida bajardilar. Jarayon mobaynida talabalar o'zlari tanlagan rollarda (metodist, tarbiyachi, yozuvchi va boshqalar) ijodiy ishlar olib bordilar. Monitoring va nazorat elektron platformalar orqali olib borildi.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qila olish, kreativ va tanqidiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, veb-kvest texnologiyasi mustaqil ta'limni interfaol, maqsadli va motivatsion jarayonga aylantiruvchi samarali vosita sifatida ko'plab xorijiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Ushbu texnologiya talabalarining mustaqil bilim izlash, raqamli manbalarni tanlash va tahlil qilish, jamoaviy muhokama va ijodiy natija yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribada veb-kvest texnologiyasi talabalarining axborot savodxonligi, media kompetensiyasi va raqamli kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirishda muhim usul sifatida qaraladi. J.Dodge, B.March, M.Bernie, T.Lipscomb, A.Komarova, S.McLellan kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida veb-kvest metodikasi o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol izlanish olib boruvchi subyektga aylantirish, ularni "21-asr ko'nikmalari" (critical thinking, collaboration, communication, creativity) bilan qurollantirish vositasi sifatida ta'riflangan.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil ta'limni rivojlantirish, talabalarining raqobatbardoshligini oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni

ta'lim jarayoniga keng joriy etish borasida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan qabul qilingan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" hamda PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari" qarorlarida mustaqil ta'limning sifatini oshirish, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish va o'quv jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish masalalari belgilangan.

O'zbekistonlik olimlardan J.Jalolov, M.Aminov, A.Madvaliev, N.Mahkamov va boshqalarning ilmiy-metodik ishlari mustaqil ta'limning nazariy asoslari, uning shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi o'rni va pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unligi bo'yicha qimmatli ilmiy xulosalarni beradi. Shu bilan birga, O.Musurmonova, B.Adizov, R.Djuraev kabi pedagog olimlar talabalarda mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan metodikalar, interfaol usullar va axborot texnologiyalarining ahamiyatini tahlil qilganlar.

MDH mamlakatlari va xorijiy olimlardan V.S.Gruzdev, I.I.Ilyasov, T.Savushkina, R.Valitova, E.Hall, G.Hofstede tadqiqotlarida mustaqil ta'lim jarayonida madaniyatlararo kompetensiya, shaxsiy motivatsiya va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, S.Kaplan, P.Dodge, J.Roth kabi olimlar veb-kvestni loyihaviy ta'lim, muammoli ta'lim va gamifikatsiya bilan integratsiya qilish samaradorligini isbotlab berganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, veb-kvest texnologiyasi asosida mustaqil ta'limni tashkil etish talabalarning axborot bilan ishlash madaniyati, jamoaviy ish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimida bu texnologiyani metodik va texnologik jihatdan yanada takomillashtirish, o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyasini oshirish hamda mahalliy sharoitga mos o'quv kontentlarini yaratish zaruriyati mavjudligi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotda sifatli tahlil (qualitative

analysis) metodidan foydalanildi. Asosiy maqsad — veb-kvest texnologiyasi asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash va uning kredit-modul tizimidagi o'rnini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida kuzatuv, ishtirokchi tahlil, suhbat va refleksiya usullaridan foydalanildi. Asosiy empirik baza Хлупина Н.О. tomonidan olib borilgan amaliy tajribalar — xususan, "Ochiq sadoqalar sandig'i" nomli veb-kvest loyihasi natijalari asosida shakllantirildi. Bu loyiha Rossiya pedagogik kollejida 3-kurs talabalari (44.02.01 "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi) ishtirokida o'tkazilgan bo'lib, mustaqil ta'limni veb-kvest texnologiyasi orqali tashkil etishga doir to'laqonli namunaviy modelni taqdim etgan.

Shuningdek, tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan holda Esanov M. tomonidan ishlab chiqilgan "Oliy ta'limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi" qo'llanmasi tahlil qilindi. Ushbu metodik manba kredit-modul tizimining nazariy asoslari, mustaqil ta'limning ulushi va talabaning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari haqida muhim ma'lumotlar berdi.

Eksperimental faoliyat doirasida veb-kvest asosida tashkil etilgan topshiriqlar 3 hafta davomida talabalar tomonidan bosqichma-bosqich bajarildi. Talabalarga turli rollar taklif etildi: masalan, metodistlar — uslubiy tavsiyalar tayyorladi, tarbiyachilar — amaliy o'yinlar tuzdilar, yozuvchilar — bolalar uchun badiiy matnlar yaratdilar, dizaynerlar — vizual taqdimotlar tayyorladilar. Bu jarayonda talabalar ijodiy faoliyat olib borishdi, hamkorlikda ishlashdi, muammoli vaziyatlarga yechim topishdi.

Vazifalarning monitoringi va nazorati zamonaviy elektron platformalar (Google Sites, Linoit, e-mail va boshqa Web 2.0 vositalar) orqali amalga oshirildi. Talabalar o'zlari bajargan ishlarni real vaqt rejimida yuklashdi, fikr almashishdi, baholash me'zonlariga asoslangan o'zaro tahlil (peer assessment) va o'z-o'zini baholash (self-assessment) usullarini qo'llashdi. O'qituvchi esa masofadan turib konsultant va moderator rovida ishtirok etdi — u topshiriqlarning bajarilish jarayonini nazorat qildi, kerakli paytda ko'rsatma va tavsiyalar berdi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotga

amaliy qiymat baxsh etdi, natijalarning real ta'lim jarayoniga yaqin bo'lishini ta'minladi hamda veb-kvest texnologiyasining mustaqil ta'limni tashkil etishdagi salohiyatini chuqur tahlil qilishga imkon yaratdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar tomonidan veb-kvest asosidagi mustaqil ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllandi. Dastlab +0.52 bo'lgan mustaqil ta'limga munosabat indeksi loyiha yakunida +0.63 ga oshganligi kuzatildi. Talabalar o'zlari yaratgan veb-sahifalar orqali ijodiy ishlari taqdimoti va himoyasini amalga oshirdilar. Ko'plab talabalar jamoada ishlash, axborot izlash va prezentatsiya ko'nikmalarini rivojlantirganliklarini bildirdilar. Shuningdek, ota-onalar ishtirokida amalga oshirilgan "Rangli bolalik" nomli elektron gazeta loyihasi veb-kvestning amaliy qiymatini yanada oshirdi.

Kredit-modul tizimining asosiy talabi – talabani faol, mustaqil o'rganishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, veb-kvest texnologiyasi mustaqil ta'limni tashkil etishda o'ta mos metod hisoblanadi. Bu texnologiya orqali ta'lim shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, talabaga o'z tempida ishlash, mavzuni chuqur o'rganish va ijodiy yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, veb-kvest topshiriqlari turlicha rol va funktsiyalarni o'z ichiga olgani sababli, talabalar orasida differensiallashgan yondashuvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, veb-kvest orqali talabaning tanqidiy fikrlashi, axborot bilan ishlash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa kredit-modul tizimi talab qiladigan o'quv natijalari bilan uyg'unlashadi.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar veb-kvest texnologiyasining mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda katta salohiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu texnologiya orqali o'qituvchi va talaba o'rtasidagi masofadan turib hamkorlik, individual o'quv yo'nalishini tanlash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlari yaratiladi. Ayniqsa, axborotlashtirilgan ta'lim muhiti sharoitida veb-kvest topshiriqlari talabalarni faol o'rganuvchi subyektga aylantiradi. Shu bois, veb-kvest

texnologiyasini kredit-modul tizimida keng joriy etish, fan va modullar kesimida loyihaviy faoliyat asosida mustaqil ta'limni tashkil etish zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Jalolov, J. (2012). Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.
2. Esanov, M. (2021). Oliy ta'limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi. Toshkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti.
3. Dodge, J. (1995). Some thoughts about WebQuests. San Diego State University. Retrieved from http://webquest.org/sdsu/about_webquests.html
3. March, B. (2003). The learning power of WebQuests. *Educational Leadership*, 61(4), 42–47.
4. McLellan, S. (2004). WebQuests in the connected classroom: Enhancing critical thinking and collaboration. *Journal of Interactive Learning Research*, 15(2), 123–138.
5. Hofstede, G. (2001). *Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions and organizations across nations* (2nd ed.). Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
6. Хлупина, Н. О. (2016). Использование веб-квест-технологии в организации самостоятельной работы студентов. *Сибирский педагогический журнал*, (5), 87–92.
7. Андреева, М. В. (2004). Технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции. В *Материалы I Международной научно-практической конференции* (с. 45–50). Москва: МПГУ.
8. Полат, Е. С. (2010). *Современные педагогические и информационные технологии в системе образования*. Москва: Академия.
9. Leung, C. B., Unal, Z. (2013). Advantages and disadvantages of classroom instruction with WebQuests: Connecting literacy and technology. *Journal of Reading Education*, 38(2), 31–38.

10. Esanov, M. (2023). Oliy ta'limni kredit-modul asosida tashkil etish metodikasi. Toshkent: Sano-Standart.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 8-oktyabr). PF-5847-son Farmon: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Retrieved from <https://lex.uz/docs/4545884>
12. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2020, 30-iyun). 357-sonli buyruq: Kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida. <https://lex.uz/docs/4899365>